Bo'lajak logopedlarni og'ir nutq nuqsonli bolalar bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	511
<i>Achilova Sevara Djasirkulovna</i>	
Abdulla Avloniy pedagogik g'oyalarini zamonaviy boshlang'ich ta'lim bilan integratsiyalash	515
<i>Daliyeva Eliza Zokir qizi</i>	



Talabalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishda Mahmud Qoshg'ariy merosidan foydalanish.....	519
<i>Eliboyeva Lola Sulaymonovna, Ravshanova Sarvinoz O'ktamjon qizi</i>	
Derivation and Nominalization in Medical Terminology: A Comparative Model of Term and Process Name Formation in English and Uzbek	523
<i>Gulnigor Yazdonkulova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq buzilishlarida pedagogik-psixologik korreksiya usullari hamda mexanizmlari.....	526
<i>Jo'rayeva Muattar Abdumajit qizi</i>	
Ta'lim sifatini boshqarishga tizimli yondashish hamda pedagogikada PDCA modelining ahamiyati	530
<i>Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Xolmatova Maftuna Turdimat qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalarining kimyo ta'limidagi o'rni.....	535
<i>Jumaniyazova Mahliyo Qahramonovna</i>	
Inklyuziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish ...	539
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna</i>	
Sirdaryo viloyati toponimlarining shakllanish jarayonlari	543
<i>Kenjayeva Iroda Alisherovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda art texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari.....	546
<i>Mamatova Husnora Eshquvatovna</i>	
O'quvchi yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish va uni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash.....	550
<i>Mehmonova Nilufar Shuhratovna</i>	
Integrating Social-Emotional Learning in EFL Classrooms: Enhancing Language Proficiency and Emotional Intelligence.....	553
<i>Meylinorova Feruza Bakhtiyor qizi</i>	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarining malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirish	559
<i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi	562
<i>Murodova Sarvigul Raxim qizi</i>	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirishning funksional modeli	566
<i>Norboyeva Moxigul Shavkat qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini takomillashtirish	569
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy fanlar"dan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	574
<i>Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna</i>	
The Intersection of Science and Pedagogy: The Teacher's Role in Professional Evolution	580
<i>Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Shukurova Madina</i>	
Maktabgacha katta guruhlarida STEAM texnologiyasi bilan tanishtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	583
<i>Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	586
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Kurashchilarda muvozanat (balance) va ko'tarib uloqtirish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik	590
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
O'qituvchi shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishida akmeologik pozitsiyaning o'rni.....	594
<i>Xaitov Abdusolim Abdulkim o'g'li</i>	
Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta'lim moduli sifatida	596
<i>Xamroyeva Sitara Samadovna</i>	



Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	599
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limiy o'yinlarni loyihalash va joriy etish	602
<i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari	605
<i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>	
O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari	609
<i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	

TEACCH KONSEPSIYASI – AUTIZM VA KOMMUNIKATIV BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARNI DAVOLASH VA O'QITISH DASTURI

Murodova Sarvigul Raxim qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Maxsus pedagogik ta'lim yo'nalishi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada TEACCH konsepsiyasi – autizm va muloqot buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash hamda o'qitishga yo'naltirilgan dastur, shuningdek, TEACCH konsepsiyasining asosiy tamoyillari, tizimli ta'lim, ko'rgazmali tuzilma, makonni tashkil etish va vaqtni tartibga solish masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: TEACCH, konsepsiya, vizual axborot, vaqtni strukturalash, AAPEP.

Abstract: This article examines the TEACCH concept—a program designed for the treatment and education of children with autism and communication disorders. It explores the fundamental principles of the TEACCH approach, including structured education, visual organization, spatial organization, and time management.

Key words: TEACCH, concept, visual information, time structuring, AAPEP.

Аннотация: В статье рассматривается концепция TEACCH – программа, направленная на лечение и обучение детей с расстройствами аутистического спектра и нарушениями коммуникации. Анализируются основные принципы концепции TEACCH, включая структурированное обучение, визуальную организацию, организацию пространства и регуляцию времени.

Ключевые слова: TEACCH, концепция, визуальная информация, структурирование времени, AAPEP.

KIRISH

TEACCH – “Treatment and Education of Autistic and related Communication handicapped Children” (autizm va u bilan bog'liq aloqa buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish) atamasining qisqartmasi bo'lib, AQShning Shimoliy Karolina shtatida ishlab chiqilgan keng qamrovli davlat dasturi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, TEACCH alohida bir usul yoki terapiya emas, balki autizmdan aziyat chekayotgan shaxslarga yordam va qo'llab-quvvatlashni ko'zda tutuvchi kompleks yondashuvdir. Ushbu dastur qariyb 30 yil avval Erik Shoplarning ilmiy tadqiqotlari asosida universitetlar, ota-onalar uyushmalari va davlat idoralari o'rtasidagi hamkorlik natijasida yaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi autizm bilan kasallangan shaxslarning institutsionalizatsiyasi va segregatsiyasining oldini olishdan iborat edi. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, TEACCH boshqa ko'plab dasturlarga nisbatan yuqori samaradorlikka erishdi.

Vaqt o'tishi bilan dastur faqat bolalar bilan cheklanmay, balki autizmga chalingan kattalarni ham qamrab oldi. Bugungi kunda yettita mintaqaviy TEACCH markazi turli muassasalarga, jumladan bolalar bog'chalari, maktablar, mustaqil yashash joylari, ustaxonalar va boshqa tashkilotlarga, shuningdek, alohida shaxslar va ularning oilalariga yordam hamda maslahatlar ko'rsatib kelmoqda. Tizimli ilmiy tahlil asosida yordam va qo'llab-quvvatlash shakllarini doimiy ravishda nazorat qilish va takomillashtirish yo'lga qo'yilgan bo'lib, aynan shu omil TEACCH dasturining butun dunyo miqyosida autizmga chalingan shaxslarga yordam berishning eng o'ziga xos va muvaffaqiyatli modellardan biri sifatida e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda. Autizm bilan og'rikan shaxslar uchun kasallikning og'irlik darajasidan qat'i nazar, maksimal mustaqillik va yuqori hayot sifatiga erishish imkoniyatini yaratish muhim hisoblanadi. Bunda ikki asosiy jihat uyg'unlashtirilishi lozim: jamiyatga imkon qadar keng integratsiya va ayni paytda eng yuqori darajadagi mustaqillikka erishishni ta'minlaydigan maxsus muhitning mavjudligi. Integratsiya faqatgina autizm bilan kasallangan shaxsning erkinligi va rivojlanish imkoniyatlarini cheklamasdan, aksincha, uning salohiyati va imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilgan taqdirdagina samarali deb baholanadi.



TEACCH konsepsiyasining asosiy tamoyillariga ko'ra, zamonaviy ilmiy ma'lumotlar autizmni bosh miyaning organik shikastlanishi bilan bog'liq, hozircha to'liq davolanmaydigan kognitiv buzilish sifatida ham talqin qiladi va autizm bilan og'rikan shaxslar butun umri davomida ushbu holat bilan yashashga to'g'ri keladi. Shu sababli ularga hayotning barcha sohalarida va umr davomida tizimli qo'llab-quvvatlash hamda yo'l-yo'riq ko'rsatish zarur. TEACCH yondashuvida yordam va hamrohlik "ikki yo'l tamoyili" asosida tashkil etiladi, ya'ni autizm bilan og'rikan shaxslar obrazli tarzda aytganda, boshqa madaniyat vakillari sifatida qabul qilinadi: ular dunyoni boshqacha idrok etadi, o'rganish jarayoni, qadriyatlar, qoidalari va qiziqishlari o'ziga xosdir. Shu bilan birga, ular "noautistik madaniyat" tomonidan shakllantirilgan jamiyatda yashaydilar va mazkur jamiyat ularga nisbatan muayyan talablarni qo'yadi, bu esa o'zaro moslashuv va tushunishni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iloji boricha mustaqil yashash imkonini ta'minlash maqsadida autizmli shaxslar o'z qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirishda tizimli ravishda qo'llab-quvvatlanishi zarur, chunki bu ularga zamonaviy jamiyat qo'yayotgan talablarni yengib o'tishga yordam beradi. Shu bilan birga, autizm bilan yashovchi shaxslarga "quloq solish", ya'ni ularning ehtiyojlari, qiyinchiliklari va imkoniyatlarini chuqur anglash hamda autizm tufayli yuzaga keladigan cheklovlar va murakkabliklar sezilarli darajada kompensatsiya qilinadigan muhitni yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv yangi xatti-harakatlar va moslashuv strategiyalarini o'zlashtirish imkonini beradi. Ushbu jarayonda pedagogning roli madaniyatlararo vositachi rolga o'xshash bo'lib, u turli idrok va tajriba dunyolari o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi.

Mazkur vazifani samarali amalga oshirish uchun autizm bilan yashovchi shaxslar bilan professional faoliyat olib boradigan mutaxassislar o'zlarini faqat tor mutaxassislik doirasida emas, balki "universal mutaxassis" sifatida ham anglashlari lozim. Bu shuni anglatadiki, ular psixologiya, logopediya yoki psixomotorika kabi alohida sohalaridagi bilimlar bilan cheklanmasdan, autizm sohasining umumiy va tizimli jihatlaridan ham xabardor bo'lishlari zarur. Autizm spektri buzilishining turli ko'rinishlari, uning idrok, xulq-atvor va rivojlanishga ta'siri haqidagi chuqur bilimlar mutaxassislarga autizmli shaxslarning dunyoni qanday qabul qilishini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Aynan shundagina ularga mos yondashuvlar, qo'llab-quvvatlash shakllari va samarali yordam strategiyalarini ishlab chiqish mumkin bo'ladi. Ota-onalar bilan hamkorlik ushbu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar autizm bo'yicha ilmiy va amaliy bilimlarga ega "autizm bo'yicha mutaxassis" sifatida yordam ko'rsatsalar, ota-onalar "farzandi bo'yicha mutaxassis" rolini bajaradilar. Odatda, ota-onalar farzandlarining kuchli va zaif tomonlarini, ularning qiziqishlari, individual ehtiyojlari hamda kundalik hayotda duch keladigan muammolarini eng yaxshi biladilar. Shuningdek, ular mavjud shart-sharoitlar, oilaviy resurslar va talablar haqida muhim axborot manbai hisoblanadi. Shu sababli ota-onalar qo'llab-quvvatlash dasturini ishlab chiqishda ham, uni kundalik hayotga tatbiq etishda ham ajralmas hamkor sifatida namoyon bo'ladi. Ularning faol ishtirokisiz bolaning hayotiga singdirilishi lozim bo'lgan samarali yordamni to'liq amalga oshirish deyarli imkonsizdir.

Statsionar muassasalarda autizmli shaxslarni qo'llab-quvvatlash jarayonida hayotning turli sohalar, jumladan, uy, maktab va mehnat faoliyati o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yishga intilish kuzatiladi. Chunki autizmli shaxslar o'zlarining kuchli va zaif tomonlari, qiziqishlari va ehtiyojlari jihatidan juda katta farqlarga ega bo'lib, bu farqlar boshqa maqsadli guruhlariga nisbatan yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Autizm spektri buzilishining muhim belgilaridan biri notekis rivojlanish profilining mavjudligidir, ya'ni bir sohada yuqori rivojlanish darajasi boshqa sohalaridagi rivojlanish darajasini oldindan bashorat qilish imkonini bermaydi. Shu sababli o'xshash tashxisga va rivojlanish darajasiga ega bo'lgan autizmli shaxslar butunlay turlicha qiyinchilik va muammolarga duch kelishlari mumkin. Bu holat ularga nisbatan xilma-xil, keng qamrovli va moslashuvchan yordam tizimini talab etadi. Shunday ekan, yordamni individuallashtirish birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib, har bir shaxs uchun maxsus dastur ishlab chiqilishi va aynan ushbu shaxs uchun nima foydali ekanligini aniqlash muhim hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Rivojlanish dasturini individual tanlash va moslashtirish jarayonida shaxsning hayotning turli sohalaridagi qobiliyatlari, qiziqishlari va o'ziga xos muammolari haqida to'liq hamda dolzarb ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Shu sababli diagnostika, ayniqsa yordamchi diagnostika jarayoniga katta e'tibor qaratiladi. Diagnostika PEPR (qayta ko'rib chiqilgan psixota'lim profili), AAPEP (o'smirlar va kattalar uchun psixota'lim profili) kabi standart metodlar asosida yoki kundalik hayotni norasmiy baholash shaklida amalga oshirilishi mumkin. Batafsil dastlabki tashxis bilan bir qatorda, belgilangan rivojlanish maqsadlari muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilib, baholanib boriladi. Barcha yordam dasturlari autizmli shaxsning kuchli tomonlari va qiziqishlariga yo'naltiriladi hamda aynan shu resurslardan zaif tomonlarni kompensatsiya qilish uchun foydalaniladi. Yordamni rejalash-

tirish va amalga oshirish jarayonida shaxsda allaqachon shakllangan qobiliyatlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ularni maqsadli qo'llab-quvvatlash orqali yanada takomillashtirish mumkin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, autizmlı shaxslar o'quv materialı ularning qiziqishlariga mos kelganda va mehnat natıjaları qisqa vaqt ichida namoyon bo'lganda yanada samarali o'rganadilar hamda o'zlarini qulay his qiladilar.

Ta'kidlash joizki, TEACCH konsepsiyasi alohida bir metod emas, balki mustahkam o'quv-nazariy asosga ega bo'lgan umumiy integrativ pedagogik konsepsiya hisoblanadi. Ushbu yondashuv doirasida turli metodlar va terapevtik shakllardan foydalanish mumkin, biroq ularning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishi va aynan mazkur shaxs uchun foydali ekanligi isbotlangan bo'lishi zarur. Mazkur konsepsiya autizmlı shaxs uchun o'ziga xos "protez" vazifasini bajarib, mavjud nuqsonlarni kompensatsiya qilishga xizmat qiladi. Masalan, ko'rish buzilishlarida ko'zoynak, eshitish buzilishlarida eshitish apparati qanday yordam bersa, TEACCH konsepsiyasi ham autizmlı shaxsning kundalik hayotda moslashuvini yengillashtiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Autizmlı odamlarda idrokning alohida jihatlarini yetarli darajada tuzish hamda sodir bo'layotgan voqealar-ning ma'nosini tushunish qobiliyati buzilgan bo'ladi. Atrofdagi dunyo ularga tartibsiz, tushunarsiz va shuning uchun yengib bo'lmaydigan bo'lib tuyuladi. Qo'llab-quvvatlashni muvaffaqiyatli amalga oshirish olingan tajribani qayta ishlash, xavotir darajasini pasaytirish va o'quv jarayonining samaradorligini ta'minlash uchun tashqi tuzilmani yaratishdan boshlanishi kerak. Aynan shu jihat TEACCH kontsepsiyasiga aylangan metodologik yondashuvning mohiyatini tashkil etadi. Tuzilmali ta'lim. Tuzilmaning turli darajalarini ko'rib chiqishdan oldin yana bir bor ta'kidlash kerakki, tuzilmani yaratish insonga yordam berishi lozim, uning harakat erkinligini cheklamasligi kerak. U atrofdagi dunyoni yanada bashorat qilinadigan va tushunarli qilishi, ishonchsizlik hamda mo'ljal yo'qotishning oldini olishi, mustaqillik darajasini oshirishi zarur. Tuzilmalashtirish hech qachon o'z-o'zidan maqsadga aylanmasligi kerak. Tuzilma faqat haqiqatan ham zarur bo'lgan joyda o'rnatilishi lozim. Agar u to'g'ri tushunilsa, yo'nalish va ishonchning shunday darajasini ta'minlaydiki, u harakatlarning moslashuvchanligi va erkinligi darajasini pasaytirmaydi, aksincha, oshiradi.

Ko'rgazmali tuzilma. Birinchi navbatda, tuzilmalashtirish bo'yicha har qanday yordam vizual shaklda taqdim etilishi kerak. Bu autizmlı odamlarning kuchli tomonlarini hisobga oladi: rivojlangan ko'rish idroki, buning natijasida ular ko'pincha eng kichik o'zgarishlarni ham sezish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Boshqa tomondan, odatiy asosiy muloqot vositamiz – nutq ko'pincha ularga tushunarsiz bo'ladi. Bu hatto normal aqliy va nutqiy qobiliyatlarga ega bo'lgan autizmlı odamlarga ham taalluqlidir. Nutq o'tkinchi va mavhumdir. Nutq orqali, odatda, juda katta hajmdagi axborot tez sur'atda uzatiladi. Vizual axborot esa, aksincha, ko'rgazmali bo'lib, u juda aniq va faqat eng muhim ma'lumotlar bilan chegaralanadi. Vizual tuzilma vizual tashkil etish shaklida ifodalangani, masalan, ish materiallarini o'rganish uchun fazoni funksional zonalarga bo'lish. Ko'rsatmalar ham vizual shaklda, masalan, yozma tarzda, rasmlar, shablonlar yoki namunalar ko'rinishida taqdim etiladi. Bundan tashqari, vizual yordamchi vositalar yordamida berilgan vaziyatning muhim jihatlarini ajratib ko'rsatish orqali yanada aniqlikka erishish mumkin. Masalan, kun tartibining keyingi harakatni tushuntiradigan qismini qizil ramkaga joylashtirish lozim. Tushunarliklikning oshirilishi shkak tortmalari, xona eshiklari va boshqa joylarga piktogrammalar joylashtirilishi orqali ta'minlanishi mumkin. Tuzilmalashtirish uch sohani o'z ichiga oladi: fazoviy tuzilma, vaqt tuzilmasi va faoliyat tuzilmasi.

Makonni tashkil etish. Xonalarning jihozlanishi yo'nalishni osonlashtirishi va ularning vazifalari haqida aniq ma'lumot berishi kerak. Masalan, ish va o'yin hududlari aniq ajratilgan bo'lishi lozim. Ovqatlanish, ishlash va o'ynash uchun bir xil stolning qo'llanilishi autizmlı odamni kuchli chalg'itishi mumkin. Aksincha, har bir faoliyat turi uchun alohida stollar yoki turli rangli dasturxonlardan foydalanish unga nima kutayotganini aniqlashda yordam beradi. Ko'rinmas chegaralarni, masalan, stol atrofida o'tirgan har bir kishi o'ziniki deb hisoblaydigan hududni ko'rinadigan qilish zarur. Yopishqoq lenta yoki, agar bu yetarli bo'lmasa, yog'och reyka autizmlı odamga qo'shnisining tarelkasi uning hududiga tegishli emasligini tushunishga yordam beradi. Xonalarni tashkil etishdagi yana bir muhim jihat – autizmlı odamlarning sezuvchanligini hisobga olish va chalg'ituvchi omillarni kamaytirishdir. Himoya ekranlari yoki to'siqlar, alohida xonalar yoki shaxsiy stollar, xonani kam miqdordagi qo'zg'atuvchilar bilan jihozlash qo'shimcha stressning oldini olishga yordam beradi.

Vaqtıni tuzilmalashtirish. Autizmlı odamlarda vaqt hissi yetarli darajada rivojlanmagan bo'lib, ular kun davomida turli xil faoliyatlar va ularning o'zaro bog'liqligini kuzatishda qiynaladilar. Ularning aksariyati buni faqat har kuni hamma narsa bir xil tartibda takrorlangan taqdirdagina uddalay oladilar. Autizmlı odamlar bunday bir xillikka qat'iy rioya qilish orqali kutilmagan hodisalar sonini kamaytirishga va ularni oldindan ko'ra bilishga intiladilar, ammo bu ularning "yopiq doira"ga tushib qolishi va yangi tajriba olish imkoniyatlarining cheklanishi hisobiga sodir bo'lishi mumkin.



XULOSA

Xulosa qilib aytganda, TEACCH konsepsiyasi autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni o'qitish hamda rivojlantirishda tizimli va individual yondashuvni ta'minlovchi samarali pedagogik dastur hisoblanadi. Mazkur yondashuv bolaning kuchli tomonlariga tayangan holda muhitni strukturaviy tashkil etish, vizual qo'llab-quvvatlash va kundalik faoliyatni aniq rejalashtirish orqali ularning mustaqilligi, ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. TEACCH dasturining ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etilishi maxsus ehtiyojli bolalarning hayot sifatini yaxshilash hamda ularni jamiyatga integratsiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nikolskaya O.S., Baenskaya Ye.R. Bolalar autizmini affektiv buzilish sifatida tuzatish. – 2014.
2. Nikolskaya O.S., Baenskaya Ye.R., Libling M.M. Autistik bola: yordam yo'llari. – M.: Terevinf, 2007.
3. Ivanov Ye.S., Demyanchuk L.N., Demyanchuk R.V. Bolalar autizmi: tashxis va tuzatish. – Sankt-Peterburg, 2004.
4. Zyumalla R. TEACH I dasturi bo'yicha autizmli bolalarni o'qitish va qo'llab-quvvatlash. A. Ladisov, O. Igolnikov. – Minsk, 2005. – 73 b.
5. Clayton P.J., Fatemi S.H. Psixiatriyaning tibbiy asoslari. – Totova, 2008.
6. www.google.com
7. www.chrome.com

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.